

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT HOKIMIYATNING BO‘LINISH PRINSIPINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

*Otanazarova Sevara Otanazar qizi*

*Xudoshukurova Sofiya Jamolbek qizi*

*Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘quvchilari*

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi”.

**Kalit so‘zlar:** hokimiyat, prinsip, konstitutsiya, modda, palata, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Sud hokimiyati, deputat, moliya, vakolat, yashirin ovoz, saylov, senator, spiker

O‘zbekistonda hokimiyatning bo‘linish prinsipi davlat boshqaruvi tizimida qonuniy tartib va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiluvchi muhim tamoyildir. Ushbu prinsip davlat hokimiyatining uch mustaqil tarmoq – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari orasida bo‘linishini anglatadi. Har bir tarmoq o‘ziga xos vazifa va vakolatlarga ega bo‘lib, ular bir-biridan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi.

**Qonun chiqaruvchi hokimiyat** – O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat va mamlakatda yangi qonunlar qabul qilish va o‘zgartirish va xalq vakillari sifatida boshqa masalalarni hal qilish vakolatiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — to‘rt kishidan saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to‘qqiz nafar a‘zosi fan, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari Saylov yo‘li bilan shakllantirilib 150 nafar deputatdan iborat bo‘ladi va o‘z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o‘rinbosarlarini saylaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

**Ijro etuvchi hokimiyat** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari va vazirlardan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi. Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatini ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan asosiy yo‘nalishlari doirasida amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi hisoblanib,

samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo'ladi;

fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyada va qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega

**Sud hokimiyati** – O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasi sud tizimi quyidagicha:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- harbiy sudlar;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;
- fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari;
- tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
- tumanlararo ma'muriy sudlardan iboratdir.

Mustaqillik yillarida hokimiyatlar bo'linishi prinsipining shakllanishi va rivojlanishi, O'zbekiston 1991-yil 31-avgust kuni mustaqillikni e'lon qilgach, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va demokratik qadriyatlarni kuchaytirish jarayoni boshlanishi bilan hokimiyatlar bo'linishi prinsipini amalga oshirishga katta e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingunicha 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi asos sifatida foydalanilgan. Dastlab, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi va u muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 ta moddadan iborat bo'lib, 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilinib uning tarkibi muqaddima, 6 bo'lim, 27-bob va 155 moddadan iborat. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 5-bo'limida Davlat hokimiyatining tashkil etish mustahkamlab qo'yildi.

Ushbu bo‘limning XVIII bobi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, XX bobi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va XXIII bobi Sud hokimiyati sifatida e‘tirof etiladi. Konstitutsiya davlat hokimiyatining bo‘linishini huquqiy asos sifatida belgilaydi va har bir hokimiyat tarmog‘ining vakolatlari aniq belgilangan. Bu tamoyil davlat organlarining mustaqil ishlashini ta‘minlaydi, shuningdek, huquqiy davlat qurilishi uchun asos yaratadi.

### Foydalanilgan normativ hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/-6445145#-6445771>)
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risidagi qonuni (<https://lex.uz/acts/-51961>)
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risidagi qonuni (<https://lex.uz/mact/-51799>)
4. O‘zbekiston respublikasining Sudlar to‘g‘risidagi qonuni (<https://lex.uz/docs/-5534923>)